



NAZARIYA VA AMALIYOT BIR MASKANDA

Karimova Shaxzodaxon

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-yanvar 2024 yil

Ma'qullandi: 15-yanvar 2024 yil

Nashr qilindi: 19-yanvar 2024 yil

KEY WORDS

kasbiy faoliyat, amaliy tayyorgarlik, malakaviy amaliyot, ishlab chiqarish amaliyoti, kasbiy malaka, ko'nikma, texnologik yondashuv

ABSTRACT

Ushbu maqolada kasbiy ta'limda o'tkaziladigan ishlab chiqarish amaliyotining nazariy va uslubiy asoslari va mavjud muammolar yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish amaliyotini modulli texnologiyaga asoslangan innovatsion yondashuv asosida tashkil etish va o'tkazish hamda amaliyot natijalarini Keys-stadi texnologiyasi asosida tekshirish va baholash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan

Jamiyat taraqqiyotining globallashtirish jarayoni kechayotgan hozirgi bosqichida ta'lim mazmunining fan va ishlab chiqarish talablariga mos kelishi hayotiy zaruratga aylandi. Zero, mazkur moslik mehnat bozori va jamiyat madaniy hayotining barqarorlashuvini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish dolzarb muammo sifatida baholanmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Rus pedagoglari N.V.Kuzmina, M.B.Klarin, V.A.Slastenin hamda o'zbek olimlaridan B.A.Abdullaev, B.Ziyomuxamedov, M.Tojiev, A.Alimov, N.Muslimov kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish tadqiq qilingan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ishlab chiqarish amaliyotining asosiy masalalardan biri, amaliyotchining amaliy kasbiy faoliyatini boshqaruv tizimini optimallashtirish hamda kasbiy tayyorgarligini tashkiliy tuzilmasi doirasidagi mustaqillik va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat. Bu masalalarni hal etishda talabaning ta'lim faoliyatining sub'ekti sifatida mustaqil, bilimlarni rejali o'zlashtirishi va o'z-o'zini rivojlantirishida katta imkoniyatlar yaratadigan, uning bilish imkoniyatlarini namoyon etishga hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiradigan modulli ta'lim texnologiyalarining ahamiyati katta.

Modulli ta'lim texnologiyasi kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi [2]:

- o'qitishni individuallashtirish;
- ta'lim oluvchilarni nazariy bilimlardan amaliyotga samarali, faol foydalanishga o'rgatish;

- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbiy motivatsiya asosida, o'qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ruyobga chiqarish vahokazolar.

Modulli ta'limning ahamiyatli jihatlari, uning talabalarni modulni mustaqilo'rganishlari va o'z bilimlarini o'zlari nazoratqila olishlari hamda kamchiliklarini qisqa muddatda aniqlashlari va xatolarini qayta o'rganib, bartaraf etishlari mumkinligida namoyon bo'ladi. Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash hamda takomillashtirishni to'g'ri yo'lga qo'yilishi, o'z-o'zini baholash imkoniyatlari – talabalarda mehnat madaniyatini, amaliyotga mas'uliyatli munosabatni tarkib toptiradi, fikrlashni, muammolarni mustaqil yechish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Fikrimizcha, modulli ta'limning ayni shu xususiyatlari, ishlab chiqarish amaliyoti samaradorligini yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Odatda, amaliyotning birinchi kunida har bir talabaga amaliyot uchun kerakli hujjatlar: amaliyot rejasiga, kundalik daftar, yakka tartibdagi topshiriq qog'ozi tarqatiladi. Kunlik amaliyot rejasiga asosan talabalar guruhlariga bo'linib, belgilangan sex yoki bo'limlari faoliyatini o'rganadilar. Amaliyot rahbarlari talabalar guruhini 1-2 soat mobaynida kunlik belgilangan ob'ektda bajariladigan ishlar mazmuni, jihozlar va muammolar bilan umumiy tanishtiradilar. Qolgan vaqtda talabalar rejalashtirilgan jarayonlarni mustaqil o'rganishlari, texnologik jarayon, jihozlarning turlari, ularning ish faoliyatini kuzatishlari va kunlik bajarilgan ishlarni kundalik daftarga yozib borishlari talab etiladi.

Mazkur bosqichda amaliyotchining mustaqil faoliyatini tashkil etishda har bir modul uchun amaliyot rahbari tomonidan oldindan tuzilgan modul dasturi yaxshi samara beradi. Modul dasturi har bir modul uchun alohida tuzilib, o'quv faoliyati elementlari, ya'ni kichik modullar va har bir o'quv elementining maqsadi hamda amaliyotchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialiga oid topshiriqlar va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, har bir o'quv elementidagi topshiriqni bajarish uchun belgilangan bahoni o'z ichiga oladi. Bu holatda har bir amaliyotchiga modul dasturi tarqatiladi, amaliyotchi o'zi uchun belgilangan ob'ektda amaliyot rahbarining umumiy tanishtiruvidan so'ng, modul dasturi va topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarga asosan belgilangan topshiriqlarni mustaqil hamda ayrim murakkab, muammoli vaziyatlarda amaliyot rahbarlaridamda korxonadagi yetakchi mutaxassislardan o'rgangan holda bajaradi [3].

Ishlab chiqarish amaliyotining modulli dasturi amaliyotchining modulni o'rganish uchun belgilangan vaqt ichida ishlab chiqarish jarayonlariga oid bilimlarni o'rganishni uzluksizligi va uzviyligini ta'minlab, korxonadagi ishlab chiqarish jarayonlarining ketma- ketligi to'g'risidagi bilimlarning tizimli o'zlashtirilishiga imkon beradi. Shuningdek, amaliyotchilarning har kuni 6 soatga mo'ljallangan aniq dasturdagi topshiriqlarni bajarish bilan mashg'ul bo'lishlari natijasida ularning bekor qolishi, amaliyotdan erta ketib qolishi yoki keraksiz ishlar bilan shug'ullanishlariga chek qo'yiladi.

Fikrimizcha, amaliyotchining 1 oy mobaynida egallagan bilimlarini 15-20 daqiqalik hisoboti asosida to'laqonli baholab bo'lmaydi. Hisobot vaqtida amaliyotga faol ishtirok etgan, hamma topshiriqlarni o'z vaqtida to'g'ri bajargan amaliyotchi o'zi egallagan bilimlarini to'liq bayon qila olmasligi, yoki hayajonlanishi va boshqa sabablarga ko'ra yaxshi natija ko'rsata olmasligi mumkin. Hisobot vaqtida past baholanishi, uning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini pasaytiradi va o'z faoliyatidan, komissiya xulosasidan qoniqmaganlik hisini tug'diradi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida amaliyotchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat

qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etishi lozim. Amaliyotchining o'zlashtirishini baholashni har bir modulni o'rganish jarayonida tashkil etish maqsadga muvofiq. Amaliyotchining amaliyotda o'zlashtirish natijalarini aniqlashda har bir modul yakuni bo'yicha nazorat topshiriqlarini turli variantlarda, masalan, 6 ta test va 2 ta Keys topshiriqlari asosida ishlab chiqish mumkin.

XULOSA VA MUNOZARA

Pedagogik kuzatishlar va faoliyatimiz natijalari quyidagi **xulosa va tavsiyalarni** shakllantirishga imkon berdi:

1. Ishlab chiqarish amaliyotini modulli texnologiya asosida tashkil etish amaliyotchi faoliyatini to'g'ri rejalashtirilishini ta'minlaydi. Shuning uchun xar bir modul uchun tuzilgan dastur sodda va amaliyotchi uchun tushunarli bo'lishi, o'rganilayotgan ob'ekt va jarayonning texnologiyasi, jihozlari va muammolarini o'rganishga imkon yaratishi lozim; Modul dasturi asosida har bir moduldagi muayyan topshiriqlarni mustaqil o'rganish va bajarish, amaliyotchida mustaqil ishlash, o'rganish, bilmaganini so'rash, ishlab chiqarish muhitida boshqalar bilan munosabatga kirishish kabi ko'nikmalarni shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli amaliyotchilarga korxonadan amaliyot rahbarini tayinlashda, ularning kasbiy mahorati, ustozlik sifatlarini e'tiborga olish lozim

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyulda qabul qilingan "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiy sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151- sonli qarori. - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil. 71-bet.
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: «Sano-standart» 2015. 11-bet.
3. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018. 91-bet
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: "Nasaf", 2020. 11-bet